

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Abduraimov Abdumalikjon ABU HOMID G‘AZZOLIYNING FALSAFADA TUTGAN O‘RNI	7
2. С.У.Убайдуллаҳўжаев ҚАДИМГИ ХОРАЗМ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ, ВА ҚУРИЛИШ АШЁЛАРИ	9
3. Феруз Бобоев ЎРТА ОСИЁДА КОММУНИСТИК МАФКУРАНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ	11
4. Феруз Бобоев ТУРКМАНИСТОН ССРДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИГА ҚАРШИ КУРАШДА АФҒОНИСТОНДАГИ МУҲОЖИРЛАРНИНГ РОЛИ	13
5. Davlatova Gulasal Baltabayevna TARIX DARSLARIDA O‘YINLI TECHNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	15
6. Арзиева Наргиза СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ПЕДАГОГИКА ИЛМИ- НИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....	17
7. Aliqulov Orzubek Aliqul o‘g‘li FRANSIYANING SHIMOLIY AMERIKADAGI MUSTAMLAKACHILIK HARAKATLARINING DASTLABKI XUSUSIYATLARI	18
8. Xudoyberdiyev Shoxrux Ravshanbek o‘g‘li UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMI TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TAFAKKURINI O‘STIRISH VA ULARDA MALAKA HAMDA KO‘NIKALAR HOSIL QILISH USULLARI.....	20



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

ABU HOMID G‘AZZOLIYNING FALSAFADA TUTGAN O‘RNI

Abduraimov Abdumalikjon

Farg‘ona davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezis Imom Abu Hamid G‘azzoliyning kalom ilmi va falsafa ilmida turgan o‘rni va falsafa fanini islomda tarmoqlagani, uning ayrim falsafiy qarashlarini yevropa olimlari o‘zlashtirgani haqida

Kalit so‘zlar: mutakalimlar, faylasuflar, botiniylar, ilohiyot, aholq, mantiq
Renne Dekart, saljuqiylar kalom ilmi, tabiatchilar, riyoziyot, falokiyot.

Abu Homid Gazzoliy 1058-yili Eronning Tus shahrida dunyoga kelgan. U yashagan davr Saljuqiylar hukumronligi davri edi. Yosh Muhammad Tus, Jurjon, Nishopur, Bag‘dod shaharida ilm olgan. Nishopurdagi mashhur Nizomiya madrasasiga boshchilik qildi. U yuzga yaqin kitoblar yozgan bulardan ko‘p juzli Ihyoy ulumid-din (din ilmlarini jonlantirish) olimning shoh asari hisoblanadi. Bundan tashqari uning “Mukoshafatul-qulub”, “Basit”, “Qavoudil-aqid”, “Risolatul qudusiya”, “Iqtisod fil e’tiqod”, Shuningdek, “Tahofut al-falasifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyo-i-saodat” (“Saodat kimyosi”), “Maqosid al-falasifa” (“Faylasuflarning maqsadlari”) asarlari olim ijodida muayyan o‘rinni egallaydi. Bu asarlarda Forobiy, Ibn Sino, Abu Hayyon atTavhidiy qarashlarining ta‘sirini ko‘rish mumkin.

U davrda tolibi ilmlar to‘rt toifaga bo‘lingan edilar: mutakalimlar (kalom ilmini o‘rganuvchilar, botiniylar, faylasuflar va so‘fiylarga ajralishgan edilar. Imom G‘azzoliy bu ilmlarni o‘rganib qay biri haq ekanini aniqlashga kirishdi. Birinchi bo‘lib kalom ilmini o‘rganishga kirishdi, bu borada muhaqqiq olimlarni asarlarini oqib chiqqach, unga oid kitob ham yozdi.

Kalom ilmi boshqa boshqa ilmlardan kora osishga rivojlanishga va zamon bilan ham nafas bo‘lishga katta ehtiyoj sezar edi, chunki insondagi subxalarni ketkazish va uning bir masalada qanoat hosil qilishga aynan manashu ilm sababchi bo‘lishi mumkin edi.

G‘azzoliy falsafani ham juda chuqur o‘rganadi chunki, o‘zini tili bilan aytganda: “Kalombilmidan keyin falsafani o‘rgana boshladim. Yaqinan shuni angladimki, bir ilmdagi fasod va noto‘g‘ri jihatlarni shu ilmda juda ham chuqur ilmiy darajaga erishgan kishilargina tushuna oladi” G‘azzoliy falsafani chuqur organib faylasuflarni bir necha toifa bo‘lishini anglab yetadi. Bu toifalarni eng qadimiysi va qattiq adashgani “dahriylar” bo‘lib, ular buyuk qudrat va hikmat sohibi, borliqdagi hamma narsani yaratuvchis bo‘lgan Zotni inkor qilishadi. Ular olamni azaldan borligini. Uni Yaratuvchuning aralashuvizis, o‘z holicha paydo bo‘lganligini davo qilishadi. Mazkur toifalarning ikkinchisi “tabiylar-tabiatchilar” bo‘lib, bular ko‘proq tabiatdan, hayvonot va nabototning hayratlanarli hollaridan so‘z yuritishadi. Ular jonzotlar yo‘q bolganidan keyin yana qayta ortga qaytishmaydi deb, oxiratni, jannat-do‘zaxni, hisob kunini inkor qilishadi.

G‘azzoliy nazlida falsafachilarning oxirgi toifasi “ilohiyyunchilar”dir. Qadimgi yunon faylasufi, falsafa asoschisi Suqrot anashu toifadan bo‘lib, u boshq yunon faylasufi Aflotunning ustoz edi. Mantiq ilmini tartibga solgan Arastu Aflotunga shogirt edi. U falsafa ilmini to‘plab oson tushinish darajasiga keltirdi. G‘azzoliy yunon falsafasini rad etar ekan, shunday deydi: “Arastuning bu bemani qarashlari shunchalik murakkab va ayqash- uyqashki, o‘qigan odam hech narsani tushunmaydi. Inson o‘zi tushunmagan, anglay olmagan narsasini qanaqasiga rad etadi yoki qabul qiladi.

Abu Homid G‘azzoliy falsafa ilmlarini olti qismga bo‘ldi:

- 1) Riyoziyot ilmi; 2) Mantiq ilmi; 3) Tabiiy ilmlar; 4) Ilohiyot ilmlari;
- 5) Siyosat ilmi 6) Ahloq ilmi;



G'azzoliy ilmi hisob-kitob, handasa va olam ko'rinishini organishga taluqli bo'lgan ilmdir. Bu ilmni diniy ishlarga na inkor na isbot taraflama hech qanday aloqasi yoq. Baki riyoziyot ilmi hujjatli ishlar bo'lib, uni tushungan va uni tanigandan keyin inkor qilishga imkon qolmaydi. G'azzoliy riyoziyot ilmini etirof qilish bilan cheklanmadi, balki bu ilmdan qasd qilinmagan holatda paydo bo'ladigan va uning ta'sirlari oqibatida o'sha paytda Islom jamiyatida ko'rinadigan ofatlarni ham zikr qilib o'tgan.

Tib ilmi haqida esa G'azzoliy shunday deydi, "Tib ilmini inkor qilish dinning shartlaridan bo'lmaganidek, falsafa ilmini ham malum masalalardan boshqasida inkor qilish dinning shartiga kirmaydi. Inkor qilishi shart bo'lgan masalalarni "Tahafutul-falosifa" zikr qilib o'tganmiz"

G'azzoliy yana aytadi: "Ammo siyosat ilmiga keladigan bo'lsak, bu borada faylasuflar tomonidan barcha so'zlar dunyoviy ishlarga va hokimyatga aloqador hukumlarga oid gaplardir. Ular bu so'zlarni payg'ambarlarga nozil qilingan kitoblardan va oldin o'tgan payg'ambarlardan qolgan hukumlardan olishgan edi. Ammo ahloqiy ilmlarga kelsak, bu boradagi faylasuflarning so'zlari nafsning sifatlariga, xulqlariga, jinslariga, turlariga uni qanday qilib tarbiyalashga oid so'lardir. Faylasuflar bu so'zlarni so'fiylarni so'zlaridan olishgan. O'sha paytlarda balki har bir asrda Allohni bor deb aytgunchilar bo'lgan

Olim Islom diniga kamdan-kam holatlarda zid keluvchi bu ilmlarni aytib o'tgandan keyin, Islom va falsafa o'rtasidagi kurashga sabab bo'luvchi ilmlarni zikr qilib o'tdi, bu "ilohiyot" ilmi edi: "Ammo ilohiyot ilmiga keladigan bo'lsak, faylasuflar bu ilmda juda ko'p adashdilar. Mantiqda shart qilgan narsalarga to'la hujjat keltira olishmadi. Shuning uchun ularning orasida ilohiyot ilmi haqida ixtiloflar ko'payib ketdi".

Shuni ochiq aytish kerakki, G'azzoliyning kuchli faylasuf bo'lhani aniq. U yuksak iqtidorli faylasuf bo'libgina qolmay, falsafada tub burilish yasagan va uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirgan alloma sifatida tanilgan. Hattoki "yangi falsafa otasi" unvonini olgan fransiyalik mashhur faylasuf Rene Dekartning mashhur qilib dunyoga tanitgan "shak nazariyasi"dir. U haqiqiy marifatga erishishdan oldin shak zarurligini takidlaydi. Uning bu nazariyasi Imom G'azzoliyning shaklariga juda o'xshash. G'arbda G'azzoliyni bilmaganlari uchun "shak nazariyasi faqat dekartga tegishli" degan etiqod bilan uni ulug'lashadi. Ushbu haqiqatni anglab yetish uchun Muhammad Sa'id Ramazon Butiyning "Shaxsiyotun istavqofatniy" kitobida tunislik tadqiqotchi Usmon Kaok Dekartning kutubxonasida G'azzoliyning "Munqiz minaz-zolal" kitobining tarjimasini topgan, unda G'azzoliyning "shak yaqin-ishonchli ilmning birinchi pog'onasidir" degan mashhur iborasini tagiga qizil qalam bilan chizilgandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Muhammad Tursun. Dunyo tebratgan buyuklar: Abu Hamid G'azzoliy "QAQNUS MEDIA" nashriyoti. Toshkent - 2017
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Ruhiy Tarbiya "Hilol nashr" Toshkent 2021
3. Internet materiallari



ҚАДИМГИ ХОРАЗМ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ, ВА ҚУРИЛИШ АШЁЛАРИ

С.У.Убайдуллаҳўжаев
(ТАҚИ)

Калит сўзи: ёдгорлик, девор, қалъа, шахристон.

Аннотация: Қадимги Хоразмнинг мил. авв. VI асрдан мил. IV асргача бўлган даврдаги қалъа иншоотлари тавсифланган, уларнинг типологияси ва хронологияси берилган. Қадимги Хоразм ҳарбий архитектураси мактабининг таркиб топиши масалалари ҳамда унинг қадимги Марказий Осиёдаги бошқа тарихий-маданий вилоятларнинг архитектура соҳасидаги анъаналари билан алоқаси кўриб чиқилган.

Аннотация: Древний Хорезминг Милл. авв. VI векдан Милл. IV векгана валган даврда крестности очеркланган, уларнинг типология и хронология берилгана. Древний Хорезм харбий архитектура школы сочинение топиш приталари Хамда унинг древний центр Азия башка тарихий - культура областного архитектурного центра биланнинг шибилган.

Хоразм ёдгорликларини тадқиқ қилишнинг биринчи ва кейинги бўшқичлари академик Я.Ғ. Ғуломов, С.П. Толстовларнинг номи, собиқ СССР ҒА ЭИ Хоразм археология экспедицияси фаолияти билан боғлиқ.

Хоразм экспедициясининг С.П. Толстов, Я.Ғ. Ғуломов ва Е.А. Поляковдан иборат таркибдаги қидириш гуруҳи 1938 йилда ишни давом эттирди. Антик ёдгорликлардан Қўйқирилганқалъа, Қўрғошинқалъа, Бозорқалъа, Жонбосқалъа, Қизилқалъа, Тупроққалъа, Катта ва Кичик Қирққиз, Анқақалъа, Қўзиқирилганқалъа текширилди (Вактурская, Воробьева, 1952, 615—616-бетлар). Бу иш натижасида мил. авв. IV аср — мил. IV аср ёдгорликлари катта мажмуи ва уларнинг санаси аниқроқ белгиланди (Толстов, 1939, 172—199-бетлар).

1939 йилда Хоразм экспедицияси археологик қидириш ишларини уч йўналишда олиб борди. Биринчи йўналиш Амударёнинг Чоржўйдан Тўрткўлгача бўлган ҳар икки соҳилини ўз ичига олди.

Иккинчи йўналиш ўнг соҳил Хоразмнинг қадимги суғорилган ерларини қамраб олди. Экспедиция 1940 йилда ўзининг асосий иш ҳудудида — Амударё ўнг соҳилидаги қадимги суғорма ерларда қазилар ва қидириш ишларини олиб борди. 1938 йилда аниқланган Тупроққалъа шахристони текширилди. Бу ерда кеч антик Хоразм шаҳари тарҳи илк бор аниқланди. Анқақалъа, Қаватқалъа, Қўйқирилганқалъалар тарҳи истиқболни мўлжаллаб қизилди, Бозорқалъада терма материал йиғилди, пгурф қазилди. Эресқалъа, Қаватқалъа шахристони, Думанқалъа ва жануби-шарқий Қорақалпоғистоннинг бошқа ёдгорликлари схематик тарҳи қизилди, архитектура ўлчовлари ўтказилди.

Катта Қирққизқалъа шахристони Қорақалпоғистон Республикаси Элликқалъа туманидаги Бухан Мерей ширкат хўжалиги ерларида жойлашган (1-сурат; 15-расм). Бу — найзасимон шинаклари бўлган икки қаватли отиш йўлаги (эни 2,8—3 м) ни ўз ичига олувчи қўшдевор билан ўралган, бурчаклари оламнинг тўрт томонига йўналган (250х215 м) мустаҳкам шахристондир (15-расм). Ташқи деворнинг қалинлиги 2,8—3 м, ичкисиники — 1,6 м. Квадрат шаклдаги хом ғиштдан (40-43х40-43х 10-12) иборат, девор 3,35 м баландликдаги уч пахса пойдевор устига кўтарилган. Баъзи жойларда пахса орасига қамиш тўшалган. Девор бўйлаб тўғри бурчакли, икки қаватли, бир-биридан 25—26 м масофада жойлашган ва бурчакларида «қалдирғочдуми» шаклини ҳосил қилган зўр буржлар сақланиб қолган. Буржларнинг кенлиги 8—9 м, девордан ташқарига 8—9 м туртиб чиққан. Бурж ички хоналари тарҳи тўғри бурчакли (4-4,10-4,20х5,40-5,80-6 м). Буржларга кириш жойи 0,90х2,10 м бўлиб, отиш йўлакларига олиб боради. Истеҳком девори ташқаридан 10—12 м баландликда сақланиб қолган ва унда шинаклардан ташқари, йўлак полидан 3,80—4 м. балақдликда ёруғлик тушиши учун квадрат шаклдаги дарча қолдирилган. Дарчалар оралиги 4,5—4,75 м. Буржларнинг иккинчи қаватида уч томондан дарча мавжудлиги буржда учинчи — очик қават бўлганлигини тахмин этиш учун асос беради. Йўлакларнинг ташқи деворида, 5,50 м баландликда ҳар 0,40—0,50 м масофада тўсин ўрни (15 х 18—20 см) жойлашган.

Эрес (Арис) қалъа шахристони Қорақалпоғистон Республикаси Тўрткўл тумани



худудида жойлашган. Тарҳи нотўғри эллипссимон шаклда бўлган қалъа шимоли-шарқдан жануби-ғарбга томон чўзилган, бўйи 360 м, эни 220 м. Қалинлиги 2,70 м бўлган ташқи девори айрим жойларда 9—10 м баландликда сақланиб қолган. Ички деворнинг қалинлиги пойдеворида 2 м га яқин. Йўлакнинг эни 1,90 м Ташқи девор пойдеворга қараб 85—88° нишаб. Қалъа деворлари бир-биридан 23—30 м масофада жойлашган буржлар билан кучайтирилган. Уларнинг тарҳи олд томонидан чўзиқ лўла шаклида. Эни 5,50—6,50 м, ташқарига 9—10 м туртиб чиққан. Ичкараси ёпиқ хоналардан иборат бўлмай, йўлакнинг оддий бурилишидан ҳосил бўлган. Эни 1,50 м, узунлиги 8—9,50 м.

Оқшахонқалъа (Қозоқлиётган) шахристон 1956 йилда очилган (Андрианов, 1969, 135-бет), 1982 ва 1985 йилларда текшириш ишлари олиб борилган. Ушбу ишлар натижасида шахристоннинг санаси мил. авв. IV—III асрлар—мил. III асрлар деб белгиланди (Ходжаниязов, 1995, 111-бет). Ҳозир маҳаллий аҳоли орасида «Қозоқлиётган» номи билан маълум бўлган ва шу ном билан археологик адабиётларга кирган шахристон XX асрнинг 30-йилларигача Оқша(хон) қалъа деб аталгани аниқланди (Ходжаниязов, 1998, 14—19-бетлар). Бу ерда 1995 йилдан буён стационар тадқиқотлар ўтказилмоқда, халқаро Қорақалпоғистон - Австралия археологик экспедициянинг асосий объектига айланган ёдгорликда олти жой (I, III, VI, VIII, IX ва X) қазилди, уч шурф (II, V, VII) ва бир неча траншея очилди. Натижада қадимги Хоразмда қурилиш иши ва ҳарбий истеҳкомларнинг ҳар томонлама тавсифини берувчи ғоят қимматли материал қўлга киритилди. Шу сабабли бу объект мил. авв. IV—III асрларга оид энг йирик ёдгорлик деб топилди.

Юқори шаҳар Паст шаҳар девори контурига мос бўлиб, бутун шимолий бурчагини, майдоннинг тахминан тўртдан бир қисмини банд қилган. Унинг қалъа деворлари Паст шаҳар деворлари йўналишини давом эттиради. Юқори шаҳар девори Паст шаҳар деворига нисбатан яхши сақланган ва бутун периметр бўйлаб кўриниб туради.



ЎРТА ОСИЁДА КОММУНИСТИК МАФКУРАНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ

Феруз Бобоев,

Ўзбекистон ФА Тарих институти докторанти

Аннотация: Мазкур тезисда Ўрта Осиёда коммунистик мафкуранинг тарғиб қилишда ва аҳоли онгига сингдиришда рассомлар чизган асарларнинг ўрни таҳлил этилган.

Калит сўзлар: совет ҳокимияти, большевик, коммунистик мафкура, тарғибот, Ўрта Осиё.

Ўрта Осиё халқларининг ҳаётида ислом дини ва маданияти чуқур сингиб кетган. Бирок ҳокимиятини большевиклар эгаллагач жамият ҳаётида ёт бўлган коммунистик мафкурани сингдиришга қаттиқ ҳаракат қилди. Ўрта Осиё ҳаётида бу ҳолат кескин қаршиликка учраб жамиятнинг икки қисмга бўлиниб кетишига олиб келди. Жамиятнинг бир қисми совет ҳокимиятига хайрихоҳ бўлса, бир қисми эса унга қарши курашди. Совет ҳокимиятининг таъсирини мустаҳкамлаш мақсадида барча соҳалар қаторида тасвирий санъат ҳам тарғибот-ташвиқот ишларига йўналтирилди. 1918-1935 йилларда совет ҳокимиятига қарши қўзғолонларни бостириш большевиклар учун асосий муаммога айланди. Бу қўзғолонларни бостиришда нафақат ҳарбий куч, балки ҳам иқтисодий ҳам мафкуравий кураш олиб борилди. Шундай мафкуравий курашларда ва аҳоли орасида коммунистик мафкурани тарғиб қилишда рассомлар чизган асарларнинг ҳам алоҳида ўрни мавжуд.

Шу даврда барча соҳа вакиллари сингари рассомлар ҳам мафкурадан четга чиқа олмасди. Улар ҳам ўз даврининг сиёсий жиҳатларини, фаоллари ҳаётини асарларида акс эттириши лозим эди. Шунинг учун ҳам уларда “реаллик қаҳрамонлари” шиорга айлан-ди. Мафкура ва партия кўрсатмаларидан оғишган рассомлар учун ҳам “тозалаш” олиб борилди. Натижада рассомларнинг ҳам ижоди тўла равишда мафкурага хизмат қилишга йўналтириб қўйилди [1]. Шунингдек, аҳолининг онгига “босмачи” атамасини узоқ вақт, ҳаттоки ҳозирда ҳам сақланиб келишига санъатнинг роли алоҳида аҳамиятга эга. Чунки тарғибот-ташвиқот йўналишида яратилган санъат асарлари ҳозирда ҳам катта-катта галерияларда сақланиб келинмоқда. Ўз даврида коммунистик мафкурани тарғиботига катта хизмат қилган санъат асарлари тарихий ҳақиқатдан тўла хабардор бўлмаган кишилар он-гида бугунги кунда ҳам нотўғри тасаввурларни шаклланишида давом этмоқда. Шундай ишлар сирасига рассом С.М. Карпов ва П. Кузнецовларнинг асарларини киритиш мумкин. С.М. Карпов ўзининг Ўрта Осиёга сафари натижасида кундалик ҳаёт ва миллий хусуси-ятларга эътибор қаратиб, “Темирчилар” (“Кузнецы”, 1925), “Басмачи” (1926) [2] номли суратларни ишлади [3]. П. Кузнецовларнинг “Фарғона партизанлари” (“Ферганские парти-заны”, 1928), “Чўпонларнинг дам олиши” (“Отдых пастухов”, 1927-1934) ва бошқа асарла-ри совет ҳокимиятига қарши кураш тарихини ўзида акс эттиради [4]. 1928 йил Москвада ўтказилган “Қизил армиянинг 10 йиллиги” номли расмлар кўргазмасида айнан С.М. Кар-пов “Басмачи” [5] ва П. Кузнецовнинг “Фарғона партизанлари” асарлари билан иштирок этди.

Шунингдек, Қирғизистон АССРда совет ҳокимиятига қарши курашган Ғоиб Понсод-ни акс эттирган рассом А.В. Кручинин “Ғоиб Понсоднинг босмачи тўдасининг мағлуб этилиши” / “Қирғизистон тоғларидаги босмачи тўдасининг мағлуб этилиши” – “Разгром басмаческой банды Гаип Пансата”/“Разгром банды басмачей в горах Киргизии” (1932) асарини яратди. У айнан шу асари билан 1933 йилда Москвада ўтказилган “Қизил арми-янинг 15 йиллиги” номли расмлар кўргазмасида иштирок этди [6]. Бундан ташқари, О.К. Татевосьяннинг ижодида ҳам мазкур мавзу билан боғлиқ асарлар ишланди. 1944 йилда Ўзбекистон ССР халқ рассоми даражасига эришган О.К. Татевосьян 1933 йилда “Босмачи-ларнинг кишлоққа босқини” ва “Фаровон ҳаёт” – “Налёт басмачей на кишлак” ва “Зажиточная жизнь” асарларини чизди [7]. А. Подковировнинг ҳам 1933 йилда ишланган “Бас-мач” номли асарлари [8] шу даврда мафкурани сингдиришга катта хизмат қилганлигини таъкидлаш лозим.

Шундай қилиб, рассомларнинг асарлари театр, кино, адабиёт, матбуот соҳалари сингари Ўрта Осиё жамиятида коммунистик мафкурани тарғиб қилишда муҳим ўрин тутди. Шу-



нингдек, совет ҳокимиятига қарши курашган кишиларни қаралашга ва уларни аҳолининг кўз ўнгига “миллатчи”, “босмачи” ва “талончи” каби салбий сифатлар билан гавдалантиришга хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мусянкова Н. Художники и институции (самостоятельное творчество в СССР 1920 – 1930-х гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Москва, 2008. – 25 стр; Шанявская А. Целевые творческие командировки советских художников и отечественное искусство 1922-1932 годов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. Санкт-Петербург, 2017. – 22 стр.
2. “Схватка с басмачами” // “Огонёк”. 1928. № 37. – С. 13.
3. <http://oren-wiki.com/arxiv-person.html/2016/03/01/karpov,-stepan-mixajlovich/>
4. <http://babanata.ru/?p=14750>
5. Донець О. Радинський лубок із фондів Національної бібліотеки України імені В.І. Вернадського (1923-1958). Каталог. – Київ, 2006. – С. 31.
6. Донець О. Радинський лубок із фондів Національної бібліотеки України імені В.І. Вернадського (1923-1958). Каталог. – Київ, 2006. – С. 63 – 64; Суратни кўриш учун қаранг: <https://www.maslovka.org>; <http://afg-hist.ucoz.ru>.
7. Ахмедов Р. Оганес Татевосян // <http://mrdi.uz>; <https://pv-gallery.com/author/88730/Tatevosjan-O-K>
8. <http://nukus.open-museum.net/exhibit/get/310/>



**ТУРКМАНИСТОН ССРДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИГА ҚАРШИ КУРАШДА
АФҒОНИСТОНДАГИ МУҲОЖИРЛАРНИНГ РОЛИ
(1925-1926 ЙИЛЛАР)**

Феруз Бобоев,

Ўзбекистон ФА Тарих институти докторанти

Аннотация: Афғонистондаги муҳожирларнинг Туркменистон ССР билан алоқалари, совет ҳокимиятига қарши курашнинг кучайишида уларнинг ёрдами ва роли таҳлил этилган.

Калит сўзлар: муҳожир, совет ҳокимияти, чегара қўшинлари, большевик, Афғонистон, қуроли ҳаракат.

Ўрта Осиё республикалари орасида Туркменистон ССРда совет ҳокимиятига қарши кураш ўзининг кенг қамровли бўлганлиги билан алоҳида ажралиб туради. Туркменистон ССРда қуроли ҳаракат 1920-1935 йилларда давом этиб, энг кучайган даври 1924, 1927/1928 ва 1931 йилларда юз берди. Ўрта Осиё республикаларида совет ҳокимиятига қарши курашнинг давом этиши ва ҳатто кучайишида қўшни давлатлар Афғонистон, Эрон ва Хитойдаги муҳожирлар муҳим роль ўйнади. Худди шу сингари Туркменистон ССРдаги курашларда ҳам Афғонистонда яшовчи туркман ва ўзбек муҳожирлари катта таъсир кўрсатди.

Совет ҳокимияти ўрнатилгач туркман уруғлари орасида етакчи йўлбошчиларнинг раҳбарлик ролини тугатиш бошланди. Совет ҳокимиятининг синфий курашни кучайтириши бой ва ўзига тўқ хўжаликларнинг Афғонистон ва Эронга муҳожирликка кетишга мажбур қилди. Масалан, 1925 йилнинг ўзида 40 минг туркман хўжаликлари, асосан, эрсари уруғи Афғонистонга муҳожирликка кетди.

Туркман муҳожирларининг Афғонистондаги диний йўлбошчиси Эшон Халифа бўлиб, у XX аср 20 – 30-йилларида Афғонистон ва Туркменистон ССРда содир бўлган воқеаларда сезиларли роль ўйнади. У Афғонистонда муҳожирлардан тузилган қуроли гуруҳларнинг ғоявий раҳнамоси бўлиб, уларни совет ҳокимиятига қарши курашда доимий равишда қўллаб-қувватлаб турди. 1926 йилнинг иккинчи ярмида Туркменистоннинг Тошхөвүз округидан ташқари, Марв, Ленин ва Карки округларида ҳам совет ҳокимиятига қарши қуроли ҳаракат яна қайтадан кучайди. Бунга, биринчидан, Туркменистон ва Хоразм воҳасининг ўзида мавжуд гуруҳлар ҳаракат бошлаган бўлса, иккинчидан эса, Афғонистон ҳудудида куч тўплаган қуроли гуруҳлар ҳам совет чегарасини ёриб ўтди. Айниқса, бу ҳолат 1926 йилнинг сентябрь ойидан кучайди.

СССР Инқилобий ҳарбий кенгаши раиси ўринбосари Уншлихтнинг 1926 йил 16 октябрдаги маълумотида келтирилишича, 1926 йилнинг август ва сентябрнинг биринчи ярмида Афғонистондан қуроли гуруҳлар кириб келди. Шундан Жунаидхоннинг 3 та гуруҳи Хоразм воҳасидаги совет гарнизонларига, Хидир Эрсари ва Уда Сардорлар бошчилигидаги гуруҳ эса Марвдан 10-25 км узоқликдаги поезд станциясига ҳужум қилди. Уншлихтнинг фикрича, Афғонистон ва Эронга ўтган гуруҳлар мол-молларини чегарадан ўтказиб, маълум муддат дам олишга, қурол-яроғ захирасини тўплашга эришган. Шундан сўнг улар яна ҳужумларни амалга оширган. Бу икки давлатдан қуроли гуруҳларнинг совет чегарасига деярли қаршиликсиз ўтишига, биринчидан, чегара постлари катта кучга эга эмаслиги, иккинчидан, чегара линияси жуда узоқ бўлганлиги учун уни қўриқлашнинг деярли имкони бўлмаган. Бу ҳолатга чек қўйиш учун икки йўналишда: республикалардаги қуроли гуруҳларни тугатиш ва қўрбошиларга қарши хорижий ҳукуматлар томонидан ҳам бир вақтнинг ўзида чораларни амалга ошириш белгиланди. Бу ҳолат асосан Афғонистон ва Эрон билан амалга оширилиши лозим эди. Афғонистондаги қўрбошиларнинг гуруҳларини қуролисизлантириш масаласи бўйича СССР ҳукумати томонидан Афғонистон Ташқи ишлар министри Маҳмудбек Тарзига бир неча маротаба мактуб йўлланди.

ОГПУнинг Ўрта Осиё чегарасини қўриқлаш бошқармаси раҳбари Бабкевичнинг 1926 йил 3 ноябрдаги маълумотида қараганда, туркман муҳожирларини асосий мустаҳкам базаси Андхой ва Давлатобод каби афғон шаҳарлари эди. У ердаги гуруҳларнинг совет чегарасига кириши Марв, Ленин ва Карки округининг жанубий қисмлари ва Амударёнинг чап қирғоғи бўлган Туркменистон ССР ҳудудларини советлаштириш жараёнини мураккаблаштирди. Шунингдек, Туркменистон ССРдан аҳолининг оммавий равишда Афғонистонга кўчиб



кетиши Совет давлатининг қоракўлчилиқни ривожлантириш кампаниясини ҳам барбод қилар эди. Чунки аҳоли ўзи билан чорваларини ҳам олиб ўтишга ҳаракат қилди. Бу ҳолат қоракўлларни Афғонистонда инглизларнинг қўлига тушишига олиб келди. Туркменистон ССРдаги вазиятнинг янада кескин тус олишини олдини олиш мақсадида совет ҳокимияти барча чораларни ишлаб чиқди. Жумладан, 1926 йил 30 декабрда ВКП(б) Ўрта Осиё бюроси ҳузуридаги “Босмачилиққа қарши кураш Марказий комиссияси”нинг йиғилишида шу йилнинг 14-30 декабрь кунларида Афғонистондаги қуролли гуруҳларнинг Туркменистон ССРга амалга оширган ҳужумлари муҳокама қилинди. Гуруҳлар қуролларни афғонлардан олган ва уларнинг ёрдами билан чегарадан ўтган. Бюрода бу каби масалаларнинг муҳокама қилиниши натижасида совет-афғон чегараларини тўлиқ ёпиш бўйича чоралар ишлаб чиқилди ва чегара қўшинларини ошириш, уларни керакли маблағ билан таъминлаш белгиланди.

Хуллас, Афғонистондаги қуролли гуруҳларнинг Туркменистон ССР чегарасини ёриб ўтиб, совет ҳокимиятига қарши курашни давом эттириши энг кўп 1925-1927 йилларда кузатилади. Афғонистон чегарасидан доимий равишда қуролли гуруҳларнинг Туркменистон ССРга кириб келиши совет ҳокимиятига қарши курашни давом этишига, гуруҳларнинг қурол-яроғ тўплашига замин яратган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кадыров Ш. Становление и эволюция этнополитической организации у туркмен. Автореф. дисс. соис. учен. степ. док. ист. наук. Москва, 2004.
2. Пограничные войска СССР 1918 – 1928. Сборник документов и материалов. – Москва: “Наука”, 1973.



TARIX DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Davlatova Gulasal Baltabayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani
24-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q... Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya: Maqolada tarix fanining muhimligi, uning qiziqarliligi va o'yinli texnologiyalardan foydalanish yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, tarix, texnologiya, bilim, xona, o'quvchi, didaktik.

O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig'ini qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladi, buning oqibatida har bir o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi: ta'limiy (didaktik) maqsad, tarbiyaviy maqsad, faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad, ijtimoiy maqsad.

Zakovat o'yini.

Bu o'yinni o'tkazishda dastlab xonani o'yinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. O'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan, yuqori sinfda o'tkazish tavsiya etiladi.

Zakovat o'yinlarida asosan, o'rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

«To'g'ri top» o'yini uchun ikkita plakat kerak bo'ladi. O'qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo'yicha kalit so'zlarni boshlanishi yozib qo'yadi, o'quvchi esa tartibni o'zgartirgan holda kalit so'zlarning davomini yozib qo'yadi. O'yinni 6 sinflarda «Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish» mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin.

1. Poleolit bu...

2. Mezolit bu...

3. Neolit bu...

4. Eniolit bu...

5. Bronza bu...

6. Temir davri bu...

1. Insoniyat tarixida ilk tosh davri bo'lib er.avv. 1 mln.-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi...

2. O'rta tosh davri bo'lib, er.avv. 12 – 7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi....

3. Yangi tosh davri bo'lib, er.avv. 6 – 4 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.....

4. Mis tosh davri bo'lib, er.avv. 4 – 3 ming yilliklarni o'z ichiga oladi

5. Er.avv. 3 – 2 ming yilliklarni o'z ichiga olib, materiariyatdan poteriariyat ajralib chiqadi.....

6. Er.avv. 1 – ming yillikdan boshlanib, bu davrda insoniyat tarixidagi 2 – mehnat taqsimoti ro'y beradi....

«Kim biladi?» o'yinida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh a'zolari «O'zbekiston tarixi» 8-sinf darsligidan biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma'lumot o'qishadi. Ikkinchi guruh a'zolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda



ikkinchi guruh a'zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma'lumot o'qishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir to'g'ri javob uchun yutuqli kartochkalar berishadi. Bu o'yinni xohlagan mavzu yoki fanni o'rganishda dars jaryonida o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o'tkazish mumkin. Masalan, 8-sinfda “O'zbekiston tarixi” fanida foydalanish mumkin:

1-guruh:U hukmdor Ablxayrxonning farzandi Shoxbudoqsultonning o'g'li. Uning ismining ma'nosi “Kuch qudrat” demakdir. U XV asrning 80-yillarida o'z davlatini tuzgan.

2-Guruh: Shayboniyxon.

O'yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o'yin o'quvchilarda fanga yoki o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Tarixga bo'lgan ijodiy yondashuvni o'stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008
2. 6-sinf tarix darsligi
- 3.8-sinf tarix darsligi



СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ПЕДАГОГИКА ИЛМИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.

Арзиева Наргиза.

47 сонли умумий ўрта таълим мактаби, Нукус шаҳри.

Ф.И.О. Арзиева Наргиза Исметуллаевна.

Эл. Почта: йук

Тел.: 907012187

Аннотация. Мазкур илмий ишда муаллиф Қорақалпоғистонда Собиқ Иттифок давридаги педагогика илмининг ривожланиши ва шу даврда фаолият юритган олимлар ҳақида баён этади. Педагогик олимларнинг илмий меҳнатлари ва асарлари бўйича маълумотлар беради.

Калит сўзлар. Қорақалпоғистонда педагогика илми, Ж.Орынбаев, Ө.Алеёв. педагогика тарихи.

Юртимизнинг педагог олимлари тарафидан таълим-тарбия муаммоларини тадқиқ қилиб кўплаб илимий ишлар, диссертациялар ёзилди. Бой педагогик назариялар билан тажрибаларни, қарашларни илмий тарафдан ўрганиб, таҳлил қилиш педагогика илмида зарур масалалардан бири. Чунки, ўтмишдаги кўлга киритилган илим ютуқларини чуқур ўзлаштирмай туриб, илимни янада ривожлантириш, унинг ҳозирги кун учун энг зарур йуналишини йуналтириш кийин.

1925-йили Қорақалпоғистонда илк мактаб дарсликлари нашрдан чиқди. Айрим камчиликларни инобатга олмаганда болаларни ўқитишни ўз она тилида олиб бориш имконини берди. Дастлаб Марказдан юборилган кадрлар иш олиб борган бўлса, кейинчалик маҳаллий кадрлар етишиб чиқа бошлади. Лекин педагогика илмини ўрганувчи олимлар ҳали йук эди.

XX асрнинг 60 йилларидан бошлаб Ж.Орынбаев, Н.Орынбаев, А.Бекбасов, А.Омаровлар педагог олимлар етишиб чиқди. Шу даврда фаолият юритган Жумек Орынбаев Қорақалпоғистоннинг 160 йиллик (1810-1970 йиллар) таълим тарихининг ривожланишини ўрганган олим эди. Унинг илмий асарлари фақат Қорақалпоғистонда эмас Марказий Осиё халқларининг таълим тарихини ўзининг аҳамияти жиҳатидан юқори даражада туради. У 1950 йили Москвада «Қорақалпоқ мактабларининг революциягача тарихининг очерклари» мавзусида кандидатлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди. 1966 йили «Қорақалпоқ кенгаш мактаби тарихи» (1917-1930) номли монографиясини нашрдан чиқарди. 1967 йили Қорақалпоғистонда биринчи педагогика илмларининг доктори бўлди.

70 йилларда Қорақалпоғистонда педагогика илми ривожланиб, Ө.Алеёв, Ж.Қайырбаев, Ш.Непесова, Ғ.Баймуратов, Р.Хван ва. ҳ. олимлар етишиб чиқди. Бу даврда ўз педагогик қарашлари ва илмий ёндашишлари билан ажралиб турган бир қатор олимлар фаолият юритди.

Өсербай Алеёв 1974 йили «Бердакнинг педагогик қарашлари» мавзусида кандидатлик диссертация ишини муваффақиятли ҳимоя қилди. Унинг 1978-йили «Бердакнинг жамиятлик-педагогик қарашлари», 1987-йили «Қадимги Марказий Осиё халқларининг педагогик қарашлари», 1989-йили «Қадимги турк ёзувларидаги таълим-тарбиялик қарашлар», 1993 йили «Қорақалпоғистонда таълим-тарбиялик қарашларнинг юзага келиши ва ривожланиши (Қадимги даврдан бошлаб XX аср 30 йилларигача)» номли монографияларининг нашрдан чиқиши Қорақалпоғистонда педагогика илмининг ютуқларидан бўлди. Ө.Алеёв «Қорақалпоғистонда таълим-тарбиялик қарашларнинг юзага келиши ва ривожланиши (Қадимги даврдан бошлаб XX аср 30 йилларигача)» мавзусида педагогика фанлари докторлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди.

Ўтган асрнинг 80 йилларда Т.Караматдинова, А.Фазылов, Ғ.Қаллибекова ва. ҳ. олимлар фаолият юритди. Шу йиллар давомида Қорақалпоғистонда педагогика илми янада ривожланиб борди. Юртимиздан етишиб чиққан кадрлар Москва, Ленинград, Тошкент каби илим марказлари бўлган шаҳарларда таълим олиб, Қорақалпоғистонда илмий ишларини олиб борди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1) Алеёв. Ө, Өтебаев. Т. Қарақалпақстанда педагогика илимининг қелиплесиўи ҳам раўажланыўи. Тошкент 2007. 28, 47 бетлар.

2) Қосымбетов. И. Қарақалпақ интеллигенциясы тарийхи. Нукус 1970. 93 бет.



FRANSIYANING SHIMOLIY AMERIKADAGI MUSTAMLAKACHILIK HARAKATLARINING DASTLABKI XUSUSIYATLARI

Aliqulov Orzubek Aliqul o'g'li

O'zMU Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail aliqulovorzubek12345nm@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Yevropadagi vaziyat va uning natijasida boshqa hududlardagi yerlarni egallash va shuning misoli sifatida Fransiyaning Shimoliy Amerikadagi dastlabki harakatlari yoritilgan. Shuningdek dastlabki fransuz ekspiditsiyalari Kartyening amalga oshirgan ishlaridan Shampalainning yangi yerlarni egallash uchun amalga oshirgan harakatlari yoritilgan. Maqolada Richelieuning “Yuz aktsiyadorlar kompaniyasi” haqidagi ma'lumotlar ham berilgan.

Kalit so'zlar: “Yangi Fransiya kompaniyasi”, Richelieu, De Shamplain, Shimoliy Amerikaning fransuz mustamlakasi.

XV asr oxirida kashfiyotlar asri boshlanishi bilan ko'pgina Yevropa davlatlarining tashqi siyosat yo'nalishlari keskin o'zgardi. Yangi va deyarli o'zlashtirilmagan, unumdor dalalar va foydali qazilmalar bilan to'la yerlarning kashf etilishi Yevropada hukmronlik uchun davom etayotgan urushlar bilan bog'liq keng qamrovli iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan Yevropa davlatlari uchun zarur bo'lgan narsa edi. Ko'p o'tmay, XVI asrning birinchi yarmida iqtisodiy o'zgarishlarga diniy qo'zg'alishlar ham qo'shildi – protestantlik ta'limotining yaratilishi va katolik cherkovi qudratining pasayishi Yevropani diniy qarama-qarshilikka olib keldi. Bu omillar Yangi Dunyo yerlarini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi va maqsadi bo'ldi - yangi yerlarni mustamlaka qilish, ularda iqtisodiy baza yaratish, shuningdek, o'z raqiblari oldida o'zlarining “haqiqiy” e'tiqod tushunchalarini olib borish kabilardir.

Fransiya uchun mustamlakachilik kashfiyotlar davri va Yangi Dunyo yerlarini o'zlashtirish davri 1534 yilda britan navigatori Jak Kartyening zamonaviy Kanadaning Atlantika qirg'oqlariga birinchi ekspiditsiyasi bilan boshlandi. Kartye Avliyo Ko'rfazining xaritasini tuzgan birinchi yevropalik bo'ldi. Lourens va Sent-Lorens daryosining qirg'oqlari, navigatorning o'zi Avliyo Lorens sharafiga nom bergan (*Jacques Cartier Travels, 2003, p. 9*). Ekspiditsiya mahalliy irokez qabilalari bilan ham aloqada bo'lib, ular bilan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, Kartier mo'ynaning katta partiyasini olishga muvaffaq bo'ldi, bu Yevropada mo'yna yo'qligi sababli uning vazni oltinga teng edi. Va 1534 yil 24- iyulda Gaspe yarim orolida fransuzlar “Fransiya qiroliga uzoq umr” yozuvi bo'lgan xochni ko'tarishdi (*Jak Kartyening sayohatlari, 2003 yil, 26-bet*). Aslida, fransuzlar bu hudud endi Fransiyaga tegishli ekanligini ko'rsatdilar.

1541- yilda keyingi uchinchi ekspiditsiyada Kartier Kanadada birinchi fransuz aholi punkti - Fort Charlzburg Royalga asos soldi. Biroq, 1543 yil sentyabriga kelib, og'ir ob-havo sharoiti, qoraquloq va mahalliy irokezlarning bosimi tufayli aholi punkti tashlab ketilgan (Lacourier, Provencher, Waguey, 2001, 28-bet). Yangi yerlarni o'zlashtirishga bo'lgan bu muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin fransuzlar yarim asrdan ko'proq vaqt davomida Kanadaga mustamlakachilik ekspiditsiyalarini amalga oshirmadilar. Ammo Kartierning o'sha paytda Yevropada yetishmayotgan mo'ynali yerlar haqidagi ma'lumotlari vasvasaga soldi.

Fransuz savdogarlari xavfli sayohatga o'tlanishdi va ularning ba'zilar irokezlar bilan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'lishdi.

1598-yilda fransuzlar Akadiya qirg'oqlari yaqinida doimiy savdo nuqtasini tashkil etishga harakat qilishdi, ammo yomon ob-havo va yomon jihozlangan mustamlaka ekspiditsiyasi tufayli urinishlar muvaffaqiyatsiz tugadi.

1608-yilda fransuz mustamlakachisi va tadqiqotchisi Samuel de Shamplain Avliyo Lorens daryosining og'ziga kelib, bu joyda Kvebek shahriga asos solganida hamma narsa o'zgardi. De Shamplain 1603-yildan, 1606-yilgacha bo'lgan davrda yangi dunyoni o'rganishda boy tajribaga ega edi. Shimoliy Amerikaga fransuz ekspiditsiyalari. Va 1608-yilda Fransiya qiroli Genrix IV va aristokratik mustamlakachi Per Dugua tomonidan shaxsan homiylik qilingan de Shamplain doimiy yashash uchun zamonaviy Kanada yerlarini rivojlantirish uchun yo'lga chiqdi (*Litalain va Waguey, 2004, p. 28*).

Kvebek shahri uzoq vaqt davomida tashlab ketilgan Irokez aholi punkti (Stadacona) o'rnida tashkil etilgan bo'lib, u yerda iqlim sharoiti mustamlakachilik uchun juda qulay edi. De Shamplain



mahalliy Montagnier va Algonikins qabilalari bilan aloqa o'rnatdi, ular bilan ittifoq tuzdi va hatto 1609- yilda ularning dushmanlari - Irokezlarga qarshi yurishda qatnashdi. Bu harakat fransuz mustamlakachilari va ko'chmanchilarning mavqeini mustahkamladi, ular endi mahalliy qabilalar tomonidan to'satdan bosqinlardan qo'rqmaydilar. Shuningdek, Montagniers va Algonikins bilan ittifoq bu qabilalar bilan kuchli savdo aloqalarini o'rnatdi va fransuzlar mo'ynali kiyimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

1609-yil oxirida de Shamplainning hisobotini olgach, muvaffaqiyatlardan hayratda qolgan Genrix IV o'z fuqarolari tomonidan mustamlaka qilingan yerlarga: Yangi Fransiya deb nom berdi. Qirolning yangi yerlar uchun katta rejalari bor edi, lekin 1610-yil may oyida Genrix IV o'ldirildi. Qirollikning regentiga aylangan uning rafiqasi Mari de Mediki Yangi Fransiyaning rivojlanishiga qiziqish bildirmadi, vaqtini butunlay intrigalar to'qishga bag'ishladi. De Shamplain qirolning o'limi haqida 1610-yil iyun oyida frantsuz mustamlakachilari va ularning ittifoqdosh qabilalari irokezlar ustidan g'alaba qozongan Sorel jangidan keyin bilib oldi (*Fischer, 2008, 577-578-betlar*). Tadqiqotchi bundan buyon Yangi Fransiya qirollik xazinasidan zarur yordam olmasligini tushundi, shuning uchun de Shamplain 1610- yil sentyabr oyida yosh koloniya uchun yangi homiylarni topish uchun Parijga jo'nadi. 1612 yilda de Shamplain Konde shahzodasi (bir vaqtning o'zida Yangi Fransiya vitse-qirol bo'lgan Genri Burbon) yordamini olishga va Ruen kompaniyasini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu kompaniya Yangi Fransiya rivojlanishi uchun yangi turtki bo'lishi kerak edi. Mo'yna savdosidan foyda olishga qiziqqan savdogarlarning yirik kapitallarini yaratish uchun investitsiyalar kiritildi. Biroq, savdogarlar faqat foyda olishdan manfaatdor edilar va yangi hududlarni o'zlashtirish foydasiz korxonalar bo'lganligi sababli, fransuz mustamlakachiligi 1621-yilgacha to'xtadi.

1621 yilda Yangi Fransiyaning yangi vitse-qirol bo'lgan Montmorens gersogi Genrix II Ruen kompaniyasini tugatdi va yangi Montmorensiy kompaniyasini yaratdi. Montmorens gertsogi koloniyadagi vaziyatni yaxshilashga harakat qilib, yangi yerlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratdi, ammo tajribasiz va yaxshi mablag'sizligi uning barcha korxonalari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. De Shamplain bu davrda turli ma'muriy lavozimlarni egallash bilan birga allaqachon rivojlangan aholi punktlarini bor kuchi bilan mustahkamladi.

1627-yilda kardinal Richelieu Fransiyaning birinchi vaziri sifatida Yangi Fransiyaning birinchi gubernatori bo'lganida hamma narsa o'zgardi. Kardinal yangi hududlarni o'zlashtirish va Shimoliy Amerikada fransuz mavqeini mustahkamlashdan manfaatdor edi. O'sha paytda Fransiya Angliya bilan urush olib bordi, bu esa o'z navbatida Kanadadagi hududlar muhim strategik ahamiyatga ega edi, shuning uchun Richieu bu hududdagi punktlarni mustahkamlashga e'tibor qaratdi. 1627-yilda Richelieu homiyligida “Yuz aksiyadorlar kompaniyasi” (shuningdek, “Yangi Fransiya kompaniyasi” yoki “Kanada kompaniyasi” deb ham ataladi) tuzildi, u mo'yna savdosida monopoliya huquqini oldi. Yangi Fransiya, Bu kompaniyaga yuzlab investorlar, jumladan kardinalning o'zi va de Shamplain, savdogarlar va moliyachilar kirdi, ularning har biri kompaniya aylanmasiga 3000 livrdan hissa qo'shgan. Mo'ynali kiyimlar monopoliyasi katta foyda va'da qildi. Yangi Dunyoni mustamlaka qilish, savdogarlarni mo'ynali kiyimlardan olingan foyda bilan, ko'chmanchilar va mustamlakachilarni esa toj homiyligidagi kompaniyadan moliyalashtirish bilan qondirish orqali erishdi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Jak Kartyening sayohatlari / Toronto universiteti matbuoti, Toronto, 2003. - 179 p.
2. Yangi Dunyo tarixi -Fransiya. jild. 2, Trudel, 1966. -554 p.
3. Shamplain: Fransuz Amerikasining tug'ilishi / RaymondeLitalien tomonidan tahrirlangan, 2004. - 399 p.
4. ShamplainningOrzusi/ Fischer David, Nyu-York, 2008. - 852 p.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI O'STIRISH VA ULARDA MALAKA HAMDA KO'NIKMALAR HOSIL QILISH USULLARI

Xudoyberdiyev Shoxrux Ravshanbek o'g'li

Namangan viloyati Norin tumani

15-maktab tarix fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA: Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumiy o'rta ta'limning V – IX sinflarida tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatlari, malakalari hamda ko'nikmalarini ma'lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur'atda o'stira borish masalalari ko'rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilyapti ushbu maqolada shu borada fikrlar keltirilgan.

TAYANCH SO'ZLAR: tarix, malaka, tarixiy bilim, tarixiy dalillar, ta'lim jarayoni, milliy g'oya, vatanparvarlik, tarixiy materiallar

O'quvchilarning tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini tizimli sur'atda, ya'ni ta'limning uzluksizligi tizimida o'stira borish, ularning malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish tarix o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri hamda tarixiy bilimlarni o'zlashtirib olishning zarur shart -sharoiti hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni egallab borish jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, malaka va ko'nikmalarini o'stira borish masalalari ko'pgina psixologlar, metodistlar hamda amaliyotchi o'qituvchilar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumiy o'rta ta'limning V – IX sinflarida tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatlari, malakalari hamda ko'nikmalarini ma'lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur'atda o'stira borish masalalari ko'rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilyapti. V – IX sinflar “Tarixdan hikoyalar”, “Tarix”, “Jahon tarixi” hamda “O'zbekiston tarixi” hamda o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun “Jahon tarixi” hamda “O'zbekiston tarixi” darsliklarida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda malakalarini o'stira borish vazifalari hisobga olingan. Ulardagi materialning bayon qilinish va umumlashtirilish xususiyati, tanlangan rasmlar va hujjatlarning matnlari, savol va toshpiriqlar tizimi o'quvchilarning zihnini o'stira borish uchun bosqichma – bosqich tizimli sur'atda yordam berishga xizmat qiladi. Ko'nikmalar haqida bir xil fikrlovchi namoyandalar ko'nikmalarni mashq qilish usulini avtomatlashtirilgan darajada egallab olish deb yoki biror ishni bajara olish uchun mashq natijasida puxta bilib olingan malaka deb va ayni bir vaqtda o'quvchilarda bilganlarini tatbiq eta bilish malakalarining o'sa borishidagi eng yuqori bosqich deb hisoblaydilar. Malaka, o'z navbatida, to'liq nihoyasiga yetmagan ko'nikma, hosil qilishdagi muhim bir bosqich deb ta'riflanadi. Malakalar haqida bir xil fikrlovchi namoyandalar esa malakani o'z bilganlarini tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni hal etish usullarini o'rganib olishdagi eng yuqori bosqich deb tushunadilar. Shunga ko'ra, malaka turli sharoitlarda tushunib anglab va aniq bajariladigan harakatlarga tayyorlik deb ta'riflanadi. Malaka bilim asosida va mashq qilish natijasida hosil qilinadi. Masalan, o'quvchilarning taqqoslash malakasi, taqqoslash paytida solishtirib ko'riladigan muhim tomonlarni ular mustaqil suratda belgilay oladilar va bu ishni o'zlari o'rganayotgan tarixiy hodisalar hamda tarixiy jarayonlarga nisbatan tatbiq etgan holda bajara oladilar, degan ma'noni bildiradi. Bu nuqtai nazar namoyandalari ko'nikmani nihoyat darajada avtomatlashib ketgan eng oddiy malaka (masalan, sanalarni yozib borish ko'nikmasi, xaritadan tarixiy – geografik ob'yektlarni to'g'ri ko'rsatish ko'nikmasi) deb qaraydilar. Malakalar ko'nikmalarga qaraganda ko'proq onglik darajasi bilan farq qiladi. Tarix o'qituvchisi o'quvchilarni milliy g'oyasi va vatanparvarlik nuqtai nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlana borishida, boshqa hodisalar bilan bog'lanishi hamda o'zaro munosabatlarida olib qarashga, hodisalarning sinfiy mohiyatiga kira bilishga, tarixiy jarayonning umumiy obyektiv qonuniyatlarini tushunishga o'rgatishi lozim. Mustaqil O'zbekistanimiz umumiy o'rta maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni o'stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o'rgatish bilan bog'langandir. Bu vazifalar VI – VII sinflarda tarix fanini o'qitishda ham o'quvchilar uchun og'irlik qilmaydigan darajada qo'yiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'limdan keyingi bosqich hisoblanadigan o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko'paya borishi bilan, ularning



tafakkurini o‘stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi va bu bosqichda tarix kursini o‘qitishda o‘quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko‘nikmalarini hosil qila borish vazifalari — bu, tarixiy bilimlarni mustaqil suratda topib, tizimga solib, ularni amalda tatbiq eta bilishga o‘rgatish, pirovardida esa, o‘quvchilarni o‘tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy nuqtai nazardain yondoshishga o‘rgatish demakdir. Bugungi kunda uzluksiz ta’limning har ikkala tizimida ham o‘qitiladigan tarix fanlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix fanini o‘qitish davomida hosil qilina boradigan malakalar guruhlarini shartli ravishda quyidagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealar hamda hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bo‘lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta’riflar berish malakalari;

2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish malakalari;

3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o‘z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatidan ular o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari;

4. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani «tilga kirgizish», undagi izohlar va shartli belgilardan xatosiz foydalanish, kontur xaritani tarixiy mazmunda to‘ldirish va shu kabi malakalar;

5. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiy va alohida xususiyatlarini topish malakalari;

6. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash asosida, induktiv hamda deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar (shu jumladan, baho berishga doir yakunlar ham) yasash, yakunlarni, berilgan baholarni asoslab berish, tarixiy dalillar va umumiy xulosalarga tayangan holda to‘g‘ri isbotlay olish malakalari;

7. Tarixiy materialni og‘zaki yoki yozma tarzda bayon eta bilish (izchil tartibda, obrazli qilib, eng asosiy va muhim narsani ajratib ko‘rsatgan holda va hokazo

8. Axborotlar, dokladlar, referatlar, siyosiy yangiliklar tayyorlash hamda ularni o‘tkazish malakalari;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uzluksiz ta’lim tizimining o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimi bosqichlarida tarix darslarida o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilinishi natijasida sog‘lom e’tiqodli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, o‘z xatti — harakatlariga javob bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — T.: “Fan”, 2006.-B.23

2.Sa’diyev A. Fuzailova G. Xasanova M. “Tarix o‘qitish metodikasi” T. 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000